IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: VP46773442

**“Tasdiqlayman”**

**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining birinchi o‘rinbosari, Xarid komissiyasi raisi**

**______ M.Jurayev**

29 aprel 2026 yil.

**TEXNIK TOPShIRIQ**

**Kasbiy standartlarni ishlab chiqish bo‘yicha**

| | | |
|---|---|---|
| **1.** | **Buyurtmachi** | O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi |
| **2.** | **Loyihaning umumiy tavsifi, asosi** | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PQ-345-son qarori |
| **3.** | **Loyihaning maqsadi** | Loyihalarni baholash va muvofiqlashtirish, marketing va bozor tadqiqotlari bo‘yicha tahlilchilar, mehnatni tashkil qilish va me’yorlashtirish (normalash), tarjimonlik ishlari, qo‘riqlash sohasidagi faoliyat, kurerlik faoliyati, tadbirlarni tashkillashtirish faoliyati, duradgorlik ishlari, maishiy elektronika jihozlarini ta’mirlash yo‘nalishlarida kasbiy standartlarini xususiy ekspertlarni jalb qilgan holda ishlab chiqish. |
| **4.** | **Moliyalashtirish manbai** | Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi |
| **5.** | **Bajariladigan ishlar hajmi** | 1. Tegishli sohadagi kasb va lavozimlarning asosiy mehnat funksiyalarini aniqlash, o‘rganish;<br>2. Tegishli sohadagi kasb va lavozimlarning asosiy mehnat funksiyalari asosida bajaruvchilarni yollash;<br>3. Korxona, tashkilotlarda mazkur kasblarning amalga oshirayotgan vazifalarini tahlil qilish;<br>4. Mavjud milliy va xalqaro tajribani o‘rganish;<br>5. Ish beruvchilar va ekspertlar ishtirokida muhokama qilish;<br>6. Kasbiy standartlarning dastlabki loyihasini taqdim etish; |

| | | |
|---|---|---|
| | | 7. Kasbiy standartlarning yakuniy loyihasini taqdim etish. |
| 6. | **Hisobot va ishlarni topshirish-qabul qilish tartibi** | **1.** Buyurtmachining so‘roviga ko‘ra ishlarni bajarish jarayoni bo‘yicha tezkor ma’lumot taqdim etish.<br>**2.** Mazmun, muddatlar va oraliq natijalarni kelishish masalalari bo‘yicha buyurtmachi bilan hamkorlik qilish.<br>**3.** Loyihani amalga oshirishning har bir bosqichi bo‘yicha hisobot hujjatlarini tayyorlash.<br>**4.** Ijrochi ishlar bajarilishi davomida Buyurtmachiga kelishilgan bosqichlar bo‘yicha tegishli materiallarni taqdim etadi.<br>**5.** Ish natijalarini qabul qilish taqdim etilgan materiallarni ko‘rib chiqish va ularning ushbu texnik topshiriq talablariga muvofiqligi tasdiqlanishi asosida amalga oshiriladi. |
| 7. | **Amalga oshirish muddati** | 2026-yil 1-dekabr |
| 8. | **Bajaruvchi (ijrochi)ni tanlash mezonlari** | **1.** Ijrochi kasbiy standartlar, o‘quv dasturlari ishlab chiqish bo‘yicha amaliy tajribaga ega bo‘lishi lozim.<br>**2.** Ijrochi ishlarni bajarish uchun zarur mutaxassisliklar bo‘yicha (xususiy) korxona (ekspert)larni jalb qilishi lozim.<br>**3.** Kasbiy standartlar 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan kasbiy standartlar maketi asosida ishlab chiqiladi. |

29 aprel 2026 yil. **15-52-son**

XWX7670